

***UrDU kimyoviy texnologiyalar
fakulteti 171-QXMT talabasi
Yo'ldoshova Zarinaning
malakaviy amaliyoti hisobotidan***

TAQDIMOT ISHI

- **MAVZU: DONNING
IFLOSLIGINI ANIQLASH
USULLARI VA JIHOZLARI**

MUNDARIJA:

I. KIRISH

II. “BOG’OT DON “A.J.

III. ASOSIY QISM

3.1. Donni iflosligi. Dondagi aralashmalar tasnifi.

3.2. Donning iflosligi aniqlash usullari

3.3. Donning iflosligi aniqlash jihozlari

IV. XULOSA

V. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

VI. ILOVA

1. Korxonaning to'liq nomi: "Bogot-don" aktsiyadorlik jamiyati.
2. Manzili: Xorazm viloyati, Bogot tumani, Kulonkorabog kishlogi.
3. Mulkchilik shakli: Aktsiyadorlik jamiyati.
4. Yuqori tashkiloti: "Uzdonmaxsulot" aktsiyadorlik kompaniyasi.
5. Manzili: Toshkent shaxri, Shaxrisabz kuchasi, 36 uy.
6. Emitent banki nomi: ATB "Agrobank" ning Bogot tumani filiali.
7. Emitentning xisob raqami:
20208000200232736001. MFO 00556

8. STIR: 200426279.
9. Tarmok kodi (OKONX): 19211.
- 10 Korxonaga el.pochtasi E-mail: aobogotdon@mail.ru
- 11 Korxonaning rasmiy veb sayti: www.bogotdon.uz
12. Korxonaga don va don maxsulotlarini saklash va qayta ishlash bilan shug'ullanadi.



13. “Bog’ot-don” A.J. 1979-yilda don qabul qilish korxonasi sifatida tashkil qilinib , ishlab chiqarish sexlari qurilib yirik tashkilotga aylantirilgan . 1982-yilda guruch sexi qurib ishga tushirilib “ Bog’ot guruch zavodi” deb , 1984-yilda omuxta-yem ishlab chiqarish sexi qurilib ishga tushirilib, “Bog’ot don mahsulotlari kombinati” deb nomlangan . 1996-yilda un tegirmoni qurilib ishga tushirilgan. “ Bog’ot don mahsulotlari kominati” 1994-yilning 30-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash ko‘mitasi Xorazm hududiy boshqarmasining N-438 sonli buyrug‘I bilan “Bog’ot-don” ochiq aksionerlik jamiyatiga aylantirilgan.Hozirgi kunda jamiyat nizom jamg‘armasi miqdori 1949520ming so‘mni tashkil qilib , nominal qiymat 800 so‘mdan bo‘lgan 2436900 dona aksiyadan iborat .





. ASOSIY QISM

3.1. Donni iflosligi. Dondagi aralashmalar tasnifi.

Donning ifloslanganligi deb uning tarkibidagi begona aralashmalarning foiz xisobidagi miqdoriga aytiladi. Don tarkibidagi iflos aralashmalar begona va donliga bulish mumkin. Donli aralashmalar uning miqdoriga ko`proq ta'sir ko`rsatsa, begona aralashmalar donning sifatiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. *Don qabul qilish korxonalarini, un yorma, o'xlat yem korxonalariga keltiriladigan don partiyasi asosiy don vaturli miqdordagi turli aralashmalardan iborat don massasini tashkil etadi.*

Oziq-ovqat, yem va texnik maqsadlarda ishlatiladigan don partiyasidagi barcha qattiq komponentlardan iborat don massasini ikki guruhga ko'z bilan ajratish mumkin.

- 1. Asosiy don bo'lib undan mahsulot olinadi.*
- 2. Aralashmalar bo'lib, ularning ayrim qismlaridan mahsulot olinmaydi, ayrim qismining cheklangan miqdori asosiy don bilan birga qayta ishlanishi mumkin.*

Barcha aralashmalar don massasining o'z o'zidan qizishiga yordam beradi, shu bilan birga saqlash davomida sifatining buzilishiga sabab bo'ladi.

***Keraksiz aralashma.** Keraksiz aralashma tarkibga quyidagi aralashmalar fraktsiyasi kiradi. Mineral aralashma - tuproq, mayda tosh, qum va boshqalar. Bu aralashmalar don massasiga yig'im terim davrida, xamda donni ifloslangan transport vositalarida tashish vaqtida tushishi mumkin.*

***Mineral aralashma** donni tozalash davomida butunlay ajratib olinishi kerak. Chunki mineral aralashmaning unda yoki yormada bo'lishi non, un, bo'tqani iste'mol qilishda tishda g'irchilash hosil qiladi, bu esa mahsulotni sifatsiz deb baxolashga sabab bo'ladi.*

Organik aralashma. Bu guruxga quyidagi aralashmalar kiradi: o'simlik ildizi poyasi, boshoq gul qobig'i va qiltiqlari bo'laklari. Bu aralashmada chang va mikroorganizmlar ko'plab to'planadi.

Mayda teshikli elakdan o'tgan qoldiq (bug'oy va javdar uchun diametr 1 mm). Mineral va organik aralashmalarning mayda qsimlaridan, mayda yovvoyi o'simlik urug'lari va donning mayda bo'laklaridan iborat.

Donli aralashmaga kiritilmagan madaniy o'simliklar urug'lari. Bular asosiy dondan morfologik alomatlari va kimyoviy tarkibi bo'yicha farqlanadi. Bu aralashma don qayta ishlaganda, mahsulot sifatni pasaytirishi mumkin.

Yovvoyi o'simliklar urug'lari. Bular don ekinlari ichida o'sib, hosilni kamaytiradi, don massasini ifloslantiradi, saqlash davomida donni qizishiga sabab bo'ladi.

Sifati buzilgan asosiy don. Don endospermi chirigan, mog'orlagan, kuygan. Bunday donlar endospermi qimmatsiz bo'ladi, noxush ta'mi va xidga ega bo'ladi. Don qobig'i o'zgargan, endosperm rangi qoraygan bo'ladi. Bu aralashma dondan olinadigan mahsulot sifatini keskin pasaytiradi.

Yeyilgan don - xashoratlarning yegan, faqat qobig'i qolgan. Bunday don hech qanday oziqaviy qiymatga ega emas.

Zaxarli aralashma - qora kuya (*sporonya, golovnya*) *ugritsa, vyazel, raznotsvetnoy, gorchak rozovo'y, gorchak-soforu, mo'shatnik (afsonik), plevel o'byanyayuhiy (mastak), geliotrop opushennoplodno'y (tuyaqorin, xazarang), trixodesma inkanum (kampirchopon)*. Yuqorida nomlari qayd etilgan aralashmalar tarkibida zaxarli moddalarning bo'lishi xayvon va inson organizmi uchun xavf tug'diradi.

Donli aralashma. Donli aralashmaga quyidagi fraktsiyalar kiritilgan

Bo'lingan va yeyilgan asosiy donlar.

Bunday donlarda endospermi qisman saqlanib qolgan, saqlashda sifati pasayishi mumkin, chunki tez namlanadi, mikroorganizmlar bunday donlarda oson rivojlanadi, don xashoratlari uchun ozuqa xisoblanadi. Standart bo'yicha bo'lgan va qisman yeyilgan donlarning 50% donli aralashmaga va 50% asosiy donga kiritiladi

Unib chiqqan asosiy don. *Bunday donlar qobig'ining rangi o'zgargan, murtakdan maysa unib chiqqan, bo'rtgan bo'ladi. Saqlash davomida unib chiqish jarayoni davom etadi, don massasining texnologik sifatini pasaytiradi.*

Qizish yoki quritish natijasida shikastlangan asosiy don.

Saqlash davomida o'z-o'zidan qizigan yoki nam donni noto'g'ri quritish natijasida, don qobig'ining, rangi o'zgaradi, don endospermi ham qisman shikastlangan bo'lishi mumkin. Bunday don yaxshi saqlanmaydi, tayyor maxsulot sifatiga salbiy ta'sir etadi

Puch donlar - *bunday o'simlik donlari yaxshi rivojlanmagan, o'lchamlari kichkina, ustki qismi notekis, qobig'i yaxshi rivojlanishi natijasida, endosperm kuchsiz rivojlangan. Puch donlar yetilishi davomida noqulay sharoitda, masalan qurg'oqchilik natijasida xosil bo'ladi.*

3.2. DONNING IFLOSLIGINI ANIQLASH

USULLARI

Don massasining ifloslanganlik darajasini aniqlash uchun o`rtacha namunadan yirik aralashmalarning hammasi (tosh, yirik kesaklar, o`simliklar poyasining bo`lakchalari va boshqalar) terib olinadi va tarozida tortiladi, ular o`rtacha namunaning oq`irligiga nisbatan necha foizni tashkil etishi aniqlanadi. Aniqlangan yirik aralashmalar foizi urug`ining tozaligi taxlil qilinganda chiqadigan chiqindiga qo`shiladi.

Donning ifloslanganligini aniqlashda mayda aralashmalar lupa yordamida topiladi.

Bug`doy, javdar, arpa, suli, sholi, makkajo`xori, kungaboqar donlari albatta elakdan o`tkaziladi.

Don namunasi elakdan o`tkazilgandan keyin olingan ikkala fraksiya ayrim-ayrim tekshiriladi, taxlil natijalari jamlanadi. Olingan don oq`irligidan chegirib tashlash yo`li bilan toza donning oq`irligi aniqlanadi. Ifloslanganlik 0,01 gacha aniqlikda bo`lib, foiz bilan ifodalangan bo`lishi kerak.

zararlanganligi uni qabul qilishda, jo`natishda va saqlashda aniqlanadi. Zararkunandalar don massasiga miqdor va sifat jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli Davlat standartida zararkunandalar bilan zararlanish haqidagi ma'lumot muhim ko'rsatkich qilib olingan. Don massasida turli xasharotlar va kanalar bo'lishi mumkin. Keltirilgan zarar bo'yicha xashorotlar kanalardan ustun turadi. Shu sababli Davlat standartida xashorotlar bilan zararlangan don massasi konditsiyasiz, ya'ni ishlatishga yaroqsiz xisoblanadi. Don qabul qilish korxonalarida xashorotlar bilan zararlangan don partiyasi qabul kilinmaydi. Kanalar bilan zararlanish standartda ruxsat etiladi. Bunday don partiyasi sotish bahosidan ma'lum summa chegirish bilan qabul kilinadi.

Zararkunandalar soni 1 kg donda namunani elakdan o'tkazib aniqlanadi. Bunda tirik zararkunandalar soni hisobga olinadi. Qolganlari esa begona aralashmalarga kiritiladi. Kana va uzuntumshuqlar soniga qarab don partiyasining

zararlanish darajasi aniqlanadi

Ishlash tartibi: bug'doy, javdar, arpa, suli va sholining ifloslanishini aniqlashda 50 gr olinib, 6 mm.li G'alvirga solib tozalanadi. Shundan so'ng g'alvir to'plamini ustiga quyiladi va iflosligi aniqlanadi.

1-vazifa. Buning uchun bir qator kattalikdagi g'alvirlardan foydalaniladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi. 1 mm g'alvir va uni ostidan mayda donlarga muljallangan (bug'doy uchun 1,7x20, javdar uchun 1,4x20, arpa uchun 2,2x20 mm) g'alvirlar tuplami ustidan qopqoq bilan yopiladi. G'alvirlar ustma-ust qo'yilganda cho'zinchoq teshiklari bir-biriga to'g'ri kelishi kerak. Elash qo'lda yoki mexanik usulda amalga oshiriladi. Ko'lda bir tekis elash tavsiya etiladi. Elash kengligi 10 sm.dan ortmasligi kerak. Xar bir elakdagi aniqlash taxtasiga to'kilib, qo'lda ajratiladi. Begona va donli aralashma qismlariga bo'linadi. Ajratilgan fraktsiyalar tortilib, ularning miqdori aniqlanadi.

*Bunda 0,1 foiz aniqlikda olinadi
xamda quyidagi formuladan
aniqlanadi:*

$$X=T1*100\%/T$$

*Bu yerda : T1=aralashma fraksiya
T=don og'irligining o'rtacha
ko'rsatkichi*

**Metall aralashmalarini aniqlash
uchun 1 kg don tekis joyga
to'kiladi, qalinligi 0,5 sm bo'lishi
kerak. Metall aralashmalarini
magnit yordamida 3 marta
ko'ndalangiga yurgizib
tozalanadi. Xar yurgizilganda
magnit temirdan tozalanadi**

**Magnitni har tomonlama bug'doy sochmasining
ichida yurgizish kerak. Shundan so'ng metallar 0,001
g aniqlikda tortilib, uning og'irligi mg bilan 1 kg donga
taqsimlanadi.**

Oziq-ovqat, furaj, texnik don to'plamlaridagi
aralashmalarning foiz miqdoriga doimiy ifloslanish
deyiladi. Don ifloslanishiga qarab ikki turga bo'linadi:
1-turda o'tlar urug'i qo'shilib ifloslanadi;
2-turda boshqa donlarning urug'i qo'shilib ifloslanadi.

- *Xar bir donning ifloslanganligi yoki ifloslanmaganligini aniqlash, uning sifatini baxolashda shartli zaruriyat hisoblanadi. Dondan mahsulot tayyorlashda har bir to'plamning begona o't urug'i bilan ifloslanmaganligini aniqlash uning sifatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ifloslanishning tarkibini bilish, turkumlashni tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Boshqa aralashmalar:*
- *1. Mineral aralashma (tuproq-qum);*
- *2. Organik aralashma (o'simlik qismi);*
- *3. Maxsus hisobga olinadigan aralashmalar (temir va tosh);*
- *4. Yovvoyi o'tlarni urug'I;*
- *5. Buzilgan navlar (chirigan po'kak), bosilgan, ko'mirlangan, mita tushgan va boshqalar;*
- *6. Zararli aralashmalar, kasallik va zararkunandalar.*

- **Zararli aralashma butun turlari bilan hammasi bir foizdan oshmasligi kerak.**

- Jihoz va materiallar: donlar, texnik tarozi, iplar, laboratoriya taxtasi, kurakcha, skalpel, laboratoriya komponentlari, 6 mm g'alvir, 2—4 marta kattalashtiradigan zarrabin (lupa). Donli aralashmalarning tarkibi.

2-vazifa. 1. Asosiy don navlari.

a) don shaklining o'zgarishi (ko'kargan, qurg'oqchilik tufayli yaxshi yetilmagan);

b) to'liq yetilmagan don (dumbul yoki yetilmasdan sovuq urgan);

v) quritishdan yoki o'z o'zidan qizib ketgan donlar;

g) bo'lingan donlar (yarmiga yaqin).

- 2. Boshqa madaniy o'simlik donlari. Bular sifati jihatidan madaniy navga yaqin bo'lib, ulardan ma'lum darajada foydalanish mumkin.

Jihoz va materiallar:

bo'lgich apparati, texnik va analitik tarozilar, ajratadigan taxtachalar, shpatellar, karton razetkalar, taqsimot magniti, aralashmalar (begona don va zararli), don namunalari (har biridan 5 kg), glovniya bilan ifloslangan bug'doy doni (qopchalarda), sporinya shoxchalari bilan ifloslangan javdar

doni namunasi, temir zarrachalari bor don namunalari

3.3. Donning iflosligi aniqlash jihozlari



Analitik tarozi




Texnik tarozi




- **Laboratoriya shpateli**




Lupa




Rv 1,5-2,5




Rv 2,0-3,5




Rv 3,0-4,0




Rv 3,0-5,0




Rv 3,0-6,0




Rv 3,0-6,0




Rv 3,0-8,0




Rv 5,0-6,0




Rv 5,0-8,0



Rv 8,0-10,0



Rv 8,0-12,0



Rv 10,0-14,0

● G'alvir teshikchalari

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.“Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz “ Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent : O‘zbekiston, 2016. — 56 b.
- 2.”Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik” Sh.M. Mirziyoyev. — Toshkent : O‘zbekiston, 2017. — 104 b.
- 3.”Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: „O‘zbekiston“, 2017. — 48b.
- 4.Xaitov R.A. “DON VA DON MAHSULOTLARINI SAQLASH TEXNOLOGIYASI" ma'ruzalar matni Buxoro 2008y.
- 5. R.A.Xaitov., R.I.Zuparov. “Don va don mahsulotlari sifatini baxolash hamda nazorat qilish”. Toshkent. Universitet. 2000 y.
- 6. R.Normahmatov “Oziq-ovqat mahsulotlari tovarshunosligi”. Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiadorlik kompaniyasi tahririyati. 2002 y.
- 7. L.A.Trisvyatskiy. “Tovarovedenie zerna I produktov yego pererabotki” M. Kolos 1992y.
- 8. Bo‘riyev X.CH., Jo‘rayev R., Alimov O. Don mahsulotlarini

- 9. (2) Bo‘riyev X.CH., Jo‘rayev R., Alimov O. Dala ekinlari mahsulotlarini saqlash va ularga dastlabki ishlov berish. UzME., T, 2004 y.
- 10. Oripov R., Sulaymonov I, Umurzoqov E. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi. T., “Mexnat”, 1991 y.
- 11. Mirxalikov T.T., Ayxodjayeva N.K – Don va don mahsulotlarini saqlash. T., Mehnat, 2004.
- 12. X.Ch. Bo`riev, R.M.Rizaev “qishloq xo`jaligi mahsulotlarini standartlash, metrologiya va sertifikatsiyalash asoslari” T.: “Mehnat” 1999.
- Internet saytlari:
- www.ziyonet.uz
- www.kitob.uz
- www.bogot-Don.uz
- www.uzdon.uz
- www.library.tersu.uz
-